

Ona yurting - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetası

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 15 - 21 - may N:20 (66561)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.



Aziz sportsevar bolajonlar! Kuni kecha nihollari, «Barkamol avlod», «Universiada» Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida yirik sport musobaqalari yoshlarni ham ruhan, bo'lib o'tgan katta sport bayramini zo'r qiziqish ham jismonan yetuklikka chorlabgina qolmay, bilan tomosha qilgandirsiz? Yurtboshimiz dunyo miqyosiga chiqishiga ham katta tomonidan asos solingan uch bosqichli «Umid pillapoya bo'lyapti.

«UMID NIHOLLARI» BAYROG'I ENDI SIRDARYODA HILPIRAYDI

Musobaqa mash'alasi Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi «Fizika Quyosh» ilmiy ishlab chiqarish markazining 2600 darajali quyosh o'chog'ida yondirildi. Tantanali marosimda bir necha tashkilot vakillari, sportchilar, o'quvchi-yoshlar ishtirok nihollari-2006» sport musobaqalarini kemasini kema modelchiligi bo'yicha ikki karra jahon championi Shavkat Ismatullayev, kanoyali boydarka bo'yicha Osiyo championi Diana Mirzahimova va belbog'li kurash bo'yicha Jahon championi Dilmurod Ro'ziyev alanga oldirdi. O'zbekiston mudafaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti yordamida musobaqa mash'alasi Qarshiga tomon yo'l oldi. Taniqli sportchilar yo'lning bir qismini avtokortejlarda, bir qismini esa piyoda bosib o'tishdi. Masofa bo'ylab ularni mahalliy hokimliklar, jamoat tashkilotlari, o'quvchi-yoshlar kuzatib qo'yishdi. Bezatilgan yo'llar, yoshlarning shodon qiyqiqalari barchaning qalbiga jo'shqinlik olib kirdi.



Qariyb 20 ming tomoshabinni bag'riga olgan maydonda tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Qashqadaryo viloyat hokimi Nuriddin Zayniyev mehmonlarni tabrikladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Umid nihollari - 2006" sport musobaqalari ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini Prezidentning Davlat maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshitti. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Daylat madhiyasi yangradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i va "Umid nihollari" sport musobaqalari bayrog'i ko'tarildi. Musobaqa mash'alasini, dzyudo bo'yicha 3 karra Jahon championi Xurshida Babashova hamda sambo bo'yicha 5 karra O'zbekiston championi Bekzod Sattorov alanga oldirdi. Yosh sportchilarning chiqishlari, estrada xonandalari ijrosidagi kuy-ko'shiqlar, maydonagi o'ziga xos bezaklar tomoshabinlarga manzur bo'ldi. Ommaviy tomoshalarda Qarshi Davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, tibbiyat, pedagogika, san'at kollejlari, qator akademik litsey va maktab o'quvchilari ishtirok etishdi.

Ochilish marosimidan so'ng uzoq muddat davom etgan mushakbozlik musobaqa ishtirokchilari va barcha mehmonlarning qalbiga jo'shqinlik olib kirdi.

«Umid nihollari-2006» sport musobaqalarining barcha turlarida ham bahslar keskin bo'ldi. Mahoratli sportchilardan tarkib topgan terma jamoalar g'oliblik uchun kuch sinashishdi.

Quvonarlisi, deyarli barcha musobaqalarda uzoq qishloqlardan tashrif buyurgan o'g'il-qizlar yaxshi ishtirok etishdi. Oldinlari yengil atletika musobaqalarida Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlari yetakchilik uchun da'vogarlik qilgan bo'lsa, bu gal ular orasida Surxondaryo, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari vakillari ham faol ishtirok etishdi.

«Umid nihollari - 2006» sport musobaqalarining tantanali yopilish marosimida umumjamoa hisobida g'oliblar e'lon qilindi. Unga ko'ra barcha sport turlarida faollikka erishgan Toshkent shahri vakillari birinchi o'r'in, Qashqadaryo viloyati yosh sportchilari ikkinchi o'r'in, Farg'ona viloyati vakillari uchinchi o'rirlarni egalladilar.

Har uchchala jamoa vakillariga mamlakatimiz Prezidentining sovg'asi - «Damas» avtomashinalari topshirildi. Bundan tashqari, sport turlari bo'yicha yuksak natijalar ko'rsatgan sportchilarga televizor va kompyuterlar tuhfa sifatida hadya qilindi. Bu galgi musobaqalarda avvalgilardan farqli o'laroq, barcha turlar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan oltin medal sohiblariga Respublika bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan velosiped, kumush va bronza medallari sohiblariga kichik sport jihozlari taqdim etildi. Bu o'z-o'zidan yoshlarni sport bilan shug'ullanishga yana ham qiziqishini ottiradi.

Shuningdek, tantanali marosimda «Homiyalar va shifokorlar yili» munosabati bilan Qarshi shahridagi onalar va bolalar shifoxonasi hamda Kitob tumanidagi «Yosh go'daklar uyi»ga «Tez yordam» - «Damas» avtomashinalari hadya qilindi. Bu esa xalqimizga xos mehribonlik, saxovatpeshalik, bag'rikenglikning yorqin ifodasi bo'lib gavdalandi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tantanali yopilish marosimida qashqadaryolik yoshlari «Umid nihollari» bayrog'ini sirdaryolik tengdoshlariga topshirdi.

Nargiza ABDULLAYEVA.



«OLTIN TOJ» SOHIBASI

Men xorazmliklar orasida birinchi bo'lib «Oltin toj» sohibi bo'ldim. Unda qatnashishdan avval viloyatda bo'lib o'tgan insholar tanlovida ishtirok etdim. Tanlovda g'olib chiqib, oynayi jahonga yo'llanma oldim. Telemusobaqadan yaxshi taassurotlar olganim bois, sinf rahbarimiz, nemis tili o'qituvchisi Nilufar opa Ernazarova bilan nemis tilida sinflararo «Oltin toj» o'yinini uyuشتirdik. Bu tadbirimiz tuman Xalq ta'limi boshqarmasi mutasaddilariga ma'qul kelib, viloyat miqyosida ham o'tkazishni, uni ommalashtirishni aytishdi. O'zim adabiyotga qiziqaman. She'rlar mashq qilib turaman. Namunalarim «Nihol» gazetasida chop etilgan. She'rlarimni asosan adabiyot fani o'qituvchim Oybibi opa Otajonova ko'rib beradilar. She'rlarim respublika miqyosida chop etiladigan bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi»da ham chiqsa, boshim ko'kka yetardi.

SOAT

«Chiq-chiq» etib tolmaydi,
Uzoqqa ketolmaydi,
Goh qarasam, u yodqa,
Goh qarasam, bu yodqa.
Soatim, aytsam, do'stlar,
Faqt foydani ko'zlar.

*Matlubabonu EGAMBERGANOVA,
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi 16-o'rta maktab o'quvchisi.*

BULBUL

Hoy, bulbul, sayroqi qush,
Tez daraxtdan pastga tush.
Ovozing buncha mayin,
Menga yoqar kun sayin.
Sira qolmaysan tolip,
Doimo o'zing g'olib.

Yaqinda jazzi singilcham kutilmagan bir savol berib, meni neqquay vaziyatga solib qo'ydi: «Opjon, televizorda ko'pincha «qoror», «qonun» deb gapirishadi. Bu so'zlarning ma'nosini tushuntirib bering...»

To'g'risi, unga qanday javob qilishni ham bilmay qoldim. Chunki bu iboralarning mazmunini yuzaki tushunsamda, mohiyati haqida chuqurroq o'ylab ko'rmagan ekanman. Shunda bu haqda ustozim Saida opa Sagdiyevadan so'radim. Ular nafaqat menga, boshqa kursdoshlarimga ham batafsil tushuncha berdilar. Shuningdek, tezkor zamonomizda iqtisodiy bilimlarimizni boyitishimiz nechog'li muhim ekanligini ham ta'kidlab o'tdilar. Ustozdan o'rganganlarimiz asosida hatto viktorina ham o'tkazdik. Unda bizning guruhimiz g'olib chiqdi.

Kechqurun esa singlimming savoliga quydagicha javob berdim:

Qaror – bu bajarilishi lozim bo'lgan ishning aniq bir yo'lini tanlab olish bo'lib, u yoki bu yo'lni tanlab olishda bir to'xtamga yoki muayyan bir fikrga kelishdir. Bunday qarorlarni har birimiz bir k u n d a

QAROR NIMA?

o'nlab, yuzlab, umr davomida minglab qabul qilamiz.

Masalan, kiyim javonidagi qaysi bir kiyimimizni, taomnomadan qaysi ovqatni, manzilga yetib olishda qaysi transport turini, kasbni va hokazolarni tanlab, qaror qabul qilamiz. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Qaror qabul qilish zaruriyati mavjud holatning bo'lishi lozim bo'lgan holat bilan mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi. Masalan, davlat tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan narx bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z funksiyasini bajara olmaydi. Shu sababli narxlarni erkinlashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Qaror qabul qilish imkoniyatning muqobil yo'llari bo'lganda vujudga keladi va rahbar ulardan birini, eng maqbulini tanlaydi. Qarorning eng samarali yo'lini topish uchun rahbar «yetti o'chab bir kes» maqoliga rioya qilishi darkor. Puxta o'ylab ish olib bormaslik qanchalik qimmatga tushishini quydagi misoldan ko'rish mumkin.

Masalan, Toshkent - Jizzax katta yo'lining ma'lum qismini qayta sozlash to'g'risida bir necha marta noshudlarcha qabul qilingan qarorlar natijasida davlatning qanchadan-qancha mablag'i behuda sarflandi. Dastlab yo'lni ikkiga ajratib turadigan bardiyurli polosa bo'lgan. Bir rahbarning qarori bilan ular olib tashlanib, o'miga asfalt yotqizilgan. Ma'lum vaqt o'tgach, boshqa rahbar qarori bilan ular tiklanib, yo'l ikkiga ajratilgan. Bir yil o'tgach ular olib tashlanib, balandligi bir metrlik beton to'siq qo'yib chiqilgan. Shunday qilib, asoslanmagan qarorlar xalq xo'jaligiga milionlab zarar keltirgan.

Endi qaror nimaligini tushunib oldingmi? so'radim singlimdan. Uning bahonasida o'zimning ham iqtisodiy bilimlarim yanada boyiganidan xursand bo'ldim.

Xulkar SIDDIQOVA,

Toshkent Davlat Moliya institutining 2-bosqich talabasi.

BOBOMNING VASİYATI

Men Yunusobod tumanidagi 302-Buxoro viloyatida tug'ilganman. turiga qiziqaman. Hatto viloyat o'tkazilgan tennis musobaqasida sazovor bo'lganman. 1-sinfni Buxoro ganman. Ayni paytda 302-maktabning kimyo fanini mukammal o'rganyap-

maksiyatlarda tahsil olaman. Asli Bolaligidan sportning tennis bo'yicha yoshlar o'rtasida ishtiroy etib, faxrli o'ringa shahridagi 32-maktabda o'qisidagi tahsil olish bilan birga man. Maktabda a'lo baholarga o'qiyman. 3 yildan buyon o'quv yilini «Faxriy yorliq» bilan tugatib kelyapman. Kelajakda shifokor bo'lmochiman. Sababi, bobom menga shifokor bo'lishimni vasiyat qilganlar.

Shahzod AVEZOV.



Mening ismim Xolida. Men Al-Buxoriy nomli 314-maktabning 5-sinfida o'qiyman. Biser tikish, rasm chizishga qiziqaman. Albatta oyijonimga ham uy ishlardida yordam beraman. Sinf rahbarim Malika opaning hamma uyg'a bergan vazifalarini jon-dilim bilan bajaraman. Mening bittagina Abdulloh ismli akam bor. Ular 6-

sinfda o'qiydi. Sportning kikboksing turi bilan shug'ullanadilar. Men bu sportga uncha tushuna-vermasam ham, mashqlar ko'rsatib beradilar. Ular meni doimo himoya qilib yuradilar. Sinf rahbarlari Shahodat opa ham ularni maqtagani-maqtagan. Aka-singil maktabga birga borib qaytamiz. Sinfdoshlarim shunday akasi bor, deb menga havas qilishadi. Men akjonimni juda yaxshi ko'raman.

Xolida KARIMOVA.

MENING AKAM



DUGONAMGA HAVAS QILAMAN

Bizning maktab o'quvchilari «Umid nihollari» sport musobaqasida har yili muvaffaqiyatlidir. Ishtirok etib keliydi. Bu yil ham shunday bo'ldi. Sportning voleybol, stol tenissi, shaxmat turlari bo'yicha maktabimiz jamoasi tumanda birinchilikni olib, viloyat bosqichida ham ishtirok etishdi. Tumon terma jamoasi tarkibida sinfimiz o'quvchilari ham borligi meni juda quvontiradi. Ulardan biri meni yaqin dugonam Anora Boyboboyevadir. Anora yoshligidan shaxmatga qiziqadi. Uning ayishicha, aqlni charxlovchi bu o'zin dasrlarni osongina o'zlashtirishiga yordam berarkan...

Dugonamning jamoa ishlardida faolligiga, kiyinishiga, yurish-turishi va a'lochiligidagi hamma havas qiladi. Ayniqsa, matematika, fizika fanlaridan qiynalib qolsak, Anora yordamga oshiqadi. Bu yil u «Umid nihollari» sport musobaqasining viloyat bosqichida faxrli ikkinchi o'rinni egalladi. «Kelasi yil albatta birinchi o'rinni egallab, final bosqichida ishtirok etaman», deya niyat qilyapti. Anora shu kunnarda so'zining ustidan chiqish uchun astoydil harakat qilyapti. Dugonamning maqsadiga erishish yo'lida qilayotgan harakatini ko'rib, unga havasim yanada ortdi.

Yoqutxon ABDUQODIROVA,

Farg'onha viloyati, Beshariq tumanidagi 33-maktabning 7-«E» sinfi o'quvchisi.

Bir maktabdan qo'sh maktub

G'OLIB BO'LAMIZ

Har o'quv yilining oxirida maktabimizda umumi yig'ilish o'tkazilib, sinflarning egallagan o'rni e'lon qilinadi. O'rinn belgilashda har bir sinf o'quvchilarining tartib-intizomi, davomati, o'zlashtirishi, jamoa ishlardagi ishtiroyi, tadbirlarga qatnashuviga, xona jihozlarining saqlanishi kabi yigirmaga yaqin musobaqa shartlari inobatga olinadi. Har bir shart bajarilishiga qarab baholanadi va to'plagan ballarga qarab o'rinn belgilanadi.

Biz sinfimiz o'quvchilari bilan o'quv yilining boshida birinchi o'rinni olishga ahslashib qo'ygandik. Shuning uchun ham sinf rahbarimiz Sohibaxon opa Akbarova boshchiligidida barcha shartlarni o'z vaqtida va yuqori darajada bajarishga harakat qilib kelyapmiz. Bunda Mahfuza Mamajonova, Yulduzon Eraliyeva, Nodira Madrahimova, Shahnoza Olimova, Zohirjon Dehqonov, Anora Ikromova kabi faol sinfdoshlarimizning hissalarini katta bo'lyapti. Ishonamanki, albatta g'oliblikni qo'lga kiritamiz. O'shandagi xursandehiligidiz eng yaqin do'stimiz, sirdoshimiz bo'lmish «Tong yulduzi» bilan birga baham ko'ramiz.

Muazzam SHERMATOVA,

Olima RASULJONOVA, shu maktabning 6-«E» sinfi o'quvchilari.

GAR SEHRGAR BO'LIB QOLSAM...


Agar sehrgar bo'lib qolsam, butun dunyon bog'-u rog'larga aylantiraman, havoni shunchilar musaffo qilaman. Bunday havodon nafas olgan inson ming yil hayot kechiradi. Jinsiyetlilar, bezorilar va kuzzoblarini to'g'ri yo'lga olib kiraman. Hammani sog'-omon qilib, ozularini usholtiraman. Barcha insonlarni baxtli qilish, g'amgin yuzlarida tabassum ko'rish azaliy orzuim. Sehrgarlik – bu bir vosita, xolos. Agar chin dildan istasang, albatta unga e'tasasan, deyishan. Demak, men ham orzularimga albatta erishaman.

Shahnoza RAHIMOVA,

Toshkent Davlat Moliya institutining 2-bosqich talabasi.

PIRAMIDALAR VA EHROMLAR NIMANI SO'ZLAR?

Aziz bolalar, bugungi sirtqi «Olamga sayohat» imiz mo'jizakor mamlakat Misrga bo'ladi. Qadimiy Oykumena (grekcha olam)ning yetti mo'jizasidan ikkitasi joylashgan mamlakat qaysiligi barchaga ma'lum. Ha, bu – Misr. Qadimgi Misr shohlari – fir'avnlarning sun'iy tog'ni eslatadigan qirralik, baland maqbaralari vaqt va zamonga bardosh bera olgan me'moriy yodgorliklardan hisoblanadi. Mo'jizaning yana biri bu – Iskandar mayog'i. Eramizdan avval 280-yilda Iskandar Zulqarnayn buyrug'iiga binoan uch qavatlari, balandligi 120 metr keladigan kvadrat shakldagi mayoq me'mor Sostrat Knid tomonidan qurib bitirilgan. Mayoq XIV asrgacha saqlanib turdi. Hozirda uning qoldiqlarinigina ko'rish mumkin. Yana Misrda topilgan bo'ldiki, u 22 asr qadimgi Misr uchun yaratilgan



Respublikasi – Misral-Arabiya – shimoliy-sharqiy (Sinay yarim orolida) joylashgan davlat.

Maydoni – 1001,4 ming kv.km.

Aholisi – 69,5 mln. kishi (2001-yil).

Poytaxti – Qohira.

Ma'muriy jihatdan 27 muhofazaga bo'linadi.

Piramida va ehrom degan so'zga ko'z tushiboq gap mo'jizaviy mamlakat Misr haqida ekanligini anglab olish mushkul emas. 4 ming yillik rivojlanish davrini o'z ichiga oluvchi Qadimiy Misr me'morligida ehrom va maqbaralarning nodir turlari yaratilgan bo'lib, ular jahon san'atining noyob namunalaridir.

Misr haqidagi tushuncha beradigan suratlarga ko'z tushganda, unda qandaydir fikr beradigan rasm-belgili yozuvga ko'z tushadi. Bu miloddan avval 4 ming yillikdan to milodiy III-IV asrgacha qadimgi Misr uchun xizmat qilgan so'z-bo'g'inli yozuv tizimi. Uning dastlabki asosini 500dan ortiq iyerogif (rasm-belgi) tashkil etgan bo'lib, ular tasavvuriy holda muayyan tushunchalar bilan bog'lanib, tushunchalarni so'zlarda ifodalaganlar.

Yaqinda Misr Arab Respublikasining O'zbekiston tondagi elchixonasi fan va ta'lrim markazida «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Toshkent shahar kengashi a'zolari bilan fan va ta'lrim Markazi rahbariyati hamda xodimlari o'rtasida samimi suhbat bo'lib o'tdi. Bunday uchrashuvlarni tashkil qilish «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati a'zolari orasida tobora rivojlanib bormoqda. Suhbat «Kamolot»chi yoshlarning Misr Arab Respublikasi fan va ta'lrim Markazi direktori professor Magdi Muhammad Mursi janoblaridan Misr davlatiga oid va bir qancha o'zlarini qiziqtirgan savollarni berish bilan boshlandi.

Professor Mursi janoblari ta'lrim markazi haqida jumladan shunday dedi: – Misr ta'lrim Markazi Misr Arab Respublikasining O'zbekiston tondagi elchixonasiga qarashli bo'lib, 1994-yildan buyon faoliyat yuritadi. Markazimizda O'zbekiston yoshlariga Misr haqida ularning turmush tarzi, hayoti haqida ma'lumotlarni berish bilan bir-qatorda Misrda ham sizlarning yurtingiz haqida yoshlarimizga ma'lumotlar berib boriladi. Talabalar fan va ta'lrim markazida 4 yil mobaynida Misr davlatining tarixi va buguni haqida, shuningdek, arab tilidan saboq oladilar.

– Magdi Muhammad Mursi janoblari, Misrdagi «Yoshlar tashkiloti»ning faoliyati haqida gapirib bersangiz...


– O'zbekiston tondagi singari Misrda ham «Yoshlar tashkiloti» mayjud. Ular turli davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Masalan, Yevropaga, Osiyoga yoki Osiyodan Misrga o'qishga yuboriladi. Sizning yoshlaringizning maqsadi – bir

Misrda dastlabki dunyoviy bilimlar XIX asrning 2-yarmidan paydo bo'lgan. Xorijiy va mahalliy xususiy maktablar ochilishi bilan 4 yillik boshlang'ich maktablar ham ko'paya boshladi.

1952-yildan keyin boshlang'ich va o'rta maktab isloq qilindi. 1956-yildan barcha bolalarga 6 yoshdan bepul boshlang'ich ta'lim berish haqida qonun qabul qilindi. 1962-yilgi dekret maktabgacha tarbiyadan to'oliy o'quv yurtlarida bepul ta'limni joriy etdi. Endilikda bolalar uchun 6 yoshdan boshlab 6 yillik boshlang'ich ta'lim, so'ngra, 3 yillik to'liq qurashuvli maktabi, 3 yillik to'liq o'rta maktab mavjud. Barcha bosqichlarga ega xususiy maktablar ham bor. Hunar texnika tayyorlarligi hunar bilim yurtlari, hunar markazlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, shuningdek, 5 yillik texnika maktablarida olib boriladi.

OLIY TA'LIM

Oliy ta'limga universitet, institut va 4 yillik kollejlardan beriladi. To'liqsziz oliy ma'lumot beradigan 2 yillik texnika institutlari ham bor. Mamlakatdagi 14 ta universitetning eng yiriklari: Qohira, Ayn ush-Shams, Iskandariya, Amerika, Al-Azhar. Eng yirik institutlari: Al-Mansura, Politexnika va Asvondagi industrial instituti va boshqalar.



O'ZBEKISTON VA MISR ALOQALARI

1992-yil yanvarda Misr rasmiy delegatsiyasining O'zbekistonga va 1992-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Misrga tashrifini vaqtida ikkala mamlakatning turli sohalardagi hamkorlikni kuchaytirish va kengaytirish muddaolari tasdiqlanib, ularga aniqlik kiritildi. O'zbekiston va Misr o'rtasidagi munosabat va hamkorlik asoslari, investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy hamkorlik, aviatsiya qatnovi va havo transporti sohasidagi hamkorlik yuzasidan mamlakatlararo 10ta hujjat imzolandi. Toshkent sharqshunoslik instituti bilan Misrning Al-Azhar universiteti o'rtasida fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik, O'zbekiston va Misr tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik va maslahatlashuvlar to'g'risidagi bitimlar shu hujjatlarning muhimlaridir.

Muharrama PIRMATOVA.

Bola va dunyo

maqsad yo'lida birlashish. Jumladan, o'tgan yili yurtingiz «Kamolot»chilari Misrning xalqaro dam olish oromgohida bo'lib qaytishdi...

Suhbat davomida shu narsa mallum bo'ldiki, Mursi janoblaridan avval uchta Markaz direktori bo'lgan ekan. Magdi Muhammad Mursi janoblari esa Markazning to'rtinchisi rahbari ekanlar. Markazga kelgan har bir rahbarning Markaz hayotida o'z hisobini berish bilan markazi xodimlari tomonidan gapirib

Professor janoblaridan Misr ta'lilm Markazining

qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Professor Muhammad Abdurahim janoblaridan Misrdagi «O'zbekiston bog'lar» haqida gapirib berishlarini so'raganimda, ular «O'zbek» nomi bilan ataluvchi bu bog' 1980-yillarda tashkil etilganligini alohida aytilib o'tdilar.

Professor janoblari «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati a'zolarini turli shirinliklar bilan qiziqtirishdi.

Shuningdek, Magdi Muhammad Mursi janoblari Misr Arab Respublikasi davlat bayrog'idagi ranglar nimalarni anglatishini aytilib o'tdilar.

Undagi g'izil rang – ajdodlar qonini, oq rang – ertangi kunni, qora rang – o'tmishdagi jang-u Jadallarni, bayroqning o'rtasidagi burgut timsoli esa Misrning davlat gerbini bildirishini ta'kidladilar.

Shundan so'ng, Markaz rahbaryati direktori va misrlilik yoshlar bilan esdalik uchun suratga tushdilar. «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati a'zolari Misr ta'lrim Markazi o'quv xonalari va kutubxonalar bilan birma-bir tanishtirildi. Ta'lrim markazi kutubxonasida bugungi kunda olti mingdan ko'proq kitoblar mavjud. Ularning orasida tarix, madaniyat, ekologiya, matbuot, turizm sohalariga bag'ishlangan, arab tilida chop etilgan O'zbekiston haqidagi ko'pgina kitoblar mavjud. Bundan tashqari, fan va Ta'lrim markazi kutubxonasiga hadya sifatida taqrizlар ham bor.

Har ikki davlat o'rtasidagi samimi munosabatlarimizni va ushu do'stligimizni abadiy bo'lishini va gullab yashnashini tilab qolamiz.

Nuriddin SIROJIDDINOV.

IKKI TOMONLAMA DO'STLIK RISHTASI



ta'mirlanish uslubi va jihozlari haqida so'ralganda, ular Markazning ta'mirlanish uslubi «Arabesk» deb atalishini, o'yukorlik uslubida ishlatalgan stollar haqida markazdagi tasviriy san'at asarlarining Misrda keltirilganligi haqida alohida to'xtalib o'tdilar.

Professor Muhammad Abdurahim janoblaridan «Kamolot»dagi yoshlardan biri rus tilini qayerda o'rganganliklari haqida so'raganda, ular Ukrainianing Kiyev shahrida tahsil olinanliklarini aytilib o'tdilar. Muhammad Abdurahim janoblari bizlarni hozirgi kunda O'zbekistonda yashayotgan Misr fan va ta'lrim Markazidagi yoshlar bilan tanishtirdilar. Har ikki davlat yoshlari o'rtasida suhbat qizg'in davom etdi. Ular o'zlarini





O'LKAM

Bahoring muborak, aziz bo'stonim,
Ozodlik gashtini sur gulistonim.
Nomining ulug', doim O'zbekistonim,
Tuprog'ing zar, daraxting lal chamanim,
Ey ulug' vatanim, nomingdir sha'nim.

*Ulug'bek RAHMONQULOV,
ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika
maxsus gimnaziyasining
7- «G» sinf o'quvchisi.*

ZULFIYAXONIM QIZLARIGA

Biringiz san'atkor, biringiz shoir,
Hamma havas qilar izlaringizga.
Samimi kulgular yarashib turar,
Oy nuri yog'ilgan yuzlaringizga.
Kelajak tayanchi kim deb so'rsalar,
Faxr ila Sizlarni ko'rsatsa arzir.
Vatanning oqila qizlari - sizning
Boshingizdan oltin, zar sochsa arzir.
Mehr, vafo sizda, muhabbat sizda,
Qadim momolardan qolgan izdoshisz.
Hamisha shirinso'z, sadoqatlisiz,
Onalingizga yaqin sirdoshisz.
Kelajakda tilagim bundan-da yuksak,
Erishing omadga, erishing baxtga.
Qo'lni-ko'lga berib, olg'a intilib,
Erishing bundan-da yuksakroq baxtga.

*Nurxon XODIYEVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi
49 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi.*

SARISHTA HOVLI

Osmonga qarasam, quyosh charaqlar,
Uylarim polni yuvsam, yaraqlar.
Singlimga dedim: «Idishlarni yuv!»
O'zim hovlilarga sepayapman suv.
Oyim kelib dedilar: «Uyim sarishta,
Demak, mening qizlarim -
Misli farishta».

*Zarifaxon SAYDALIYEVA,
poytaxtdagi 296 - maktabning
«Kamalak» sardori.*

CHUNKI BUNDA DADAM YASHAYDI...

Bo'lib qolsam falak amri-la,
Aytaylik bir saxiy sehrgar.
Asrar edim ofatdan elni,
Tinch yashasin der edim bashar.

Zolimlarni zulmatga tashlab,
Aylar edim yerni guliston.
Ona yurtim O'zbekistonni,
Qilar edim tillarda doston.

Chunki unda dadam yashaydi,
Ishonganim - suyangan tog'im.
Mehribonim - onam yashaydi,
Unda uym - jannatim, bog'im.

Yolg'izgina erkator ukaim,
Bunda o'sar g'am-tashvish bilmay.
Koptok o'ynar, charchoqni bilmay,
Sho'xliklarin hech kanda qilmay.

Oqmi-qora, farqi yo'q menga,
Onalarga berib mehrimni.
Ko'zlaridan yosh oqmasin deb,
Ishlatardim butun sehrimni.

*Mohinur YUSUPOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis san'at litseyining
7-sinf o'quvchisi.*

BOY VA QASHSHOQ

Halol mehnati bilan badavlat bo'lgan odam mol-mulkning qadriga yetadi va tejamkorligi bilan yanada boyib ketadi.

Lekin qashshoq odam birdaniga gullab-yashnayotgan katta korxonaga boshliq bo'lib, uni kasodga uchratmasligiga shubham bor.

YAXSHILIK

Qatralar

Dunyodagi eng baland cho'qqi bu - Everest. Eng chuqur joy esa Mariana botig'i. Chin dildan yaxshilik qilishni istagan inson Marianadan Everestgacha olib chiqish mashaqqatini oladi. Undan qaytarish esa aksini. Kimdir eplaydi, kimdir yo'q.

*Botir QAYUMJONOV,
shu gimnazianing 7- «B» sinf o'quvchisi.*

ONA

Bir qo'lida beshikni, bir qo'lida dunyoni tebratgan mo'tabar ONA.
Yaratuvchanlik, ezhulik sizning zimmangizda.

Hadisi sharifda «Onangga, onangga, yana onangga, keyin otangga xizmat qil» degan purma'no so'zlardan qanchalar xulosa chiqarish mumkin. Hindlar onalar poyi qadamini tavof qilishi bejiz emas. «Jannat onalar oyog'i ostida», deydi ular. O'ylasam, bugungi ozod kunimiz, ertangi porloq kelajagimiz, musaffo osmonimiz-u sokin hayotimiz - barchasi sizning borligingiz uchun ekan. Shuncha yaxshi-yomon tashvishlar nozik qaddingizga og'irlik qilmasin, deyman.

*Jasur MADRAIMOV,
shu gimnazianing 7- «B» sinf o'quvchisi.*

BOLALIK

Osmonlarga uchaman,
Bulutlarni quchaman.
Xalqimning erkasiman,
Kelajak egasiman.
Hademay kelar fursat -
Bolalikning adosi.
Yurakni xapqirtiar,
O'smirlikning sadosi.

So'lim Zomin chorlaydi Sizni

Botir YOROV,

*Toshkent viloyati, Parkent tumani,
Zarkent qishlog'idagi
42 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.*

BOLALIK, MENI TASHLAB KETYAPSAN

O'sdim anhor-u soyda cho'milib,
O'ynadim zarrin qumga ko'milib.
Beg'uborlik mavjin yopib ketyapsan,
Bolalik, sen meni tashlab ketyapsan.
Qishloq dalasini kezdim charchamay,
Maktabga ham bordim, gohida bormay.
Umrimni davomi - yoshlik kelyapsan,
Bolalik, sen meni tashlab ketyapsan.

*Muhabbatxon USMONOVA,
Farg'ona viloyati, Uchko'pri
tumanidagi 6-maktabning
10-sinf o'quvchisi.*

Matematika fani,
O'rgatar hisob-kitob.
Tarixni bilish uchun,
Ko'proq o'qisan kitob.
Ona tilining do'sti,
Adabiyot bo'ladi.



FANLAR

Kim izlansa, o'qisa,
Katta odam bo'ladi.
Kimyo, fizika darsi,
Bizga juda qo'l kelar.
Ingliz va rus tili,
Ko'plab saboqlar berar.
Ma'naviyatni bilsak,
Hech ham zarar qilmaydi.
Konstitutsiya uchun,
Shovqin to'g'ri kelmaydi.
Zoologiya fani,
Tabiatning in'omi.
Geografiya uchun,
Yerning to'rtta tomoni.
Jismoni tarbiyada,
Qilamiz ancha mashqlar.
O'yaymiz turli o'yin,
Shunda ham ba'zi vaqtlar.

*Kamola YUSUFZODA,
shu gimnazianing
7- «B» sinf o'quvchisi.*

VATAN ABADIY

Vatanni alishmang zeb-u zarlarga,
Axir u qalbdagi nomus, orimiz.
Uni sotib qo'y mang dur-u gavharga,
Axir Vatan bizning yo'g'-u borimiz.
Boylik o'tkinchidir, havas o'tkinchi,
Umr ham o'tkinchi, har sas o'tkinchi.
Vatanni asraylik ko'z qarog'ida,
Shudir yuragimning tanho o'tinchi.

*Mirjalol MIRAKBAROV,
Toshkent shahri, Mirobod
tumanidagi 218-maktabning
6-sinf o'quvchisi.*

QALDIRG'OCH

Bahor kelib, kunlar ham isib,
Yashnab ketdi azim qayrag'och.
Osmon bag'rida charx urib
Qaytib keldi yana qaldirg'och.

Qaldirg'ochga mahliyo bo'lib,
Dilga shodlik to'ladi asta.
Bu qush bilan yashayman birga,
U tepada men esa pastda.

Eh qaldirg'och, bu ajib qushcha,
Erla bahor qayerdan kelar.
Yozda bo'lib misli muhandis,
Kuzda yanat qayerga ketar.

Qani endi qanotim bo'lsa,
Qaldirg'ochni ortidan borsam.
Uning o'shal sirli o'lkasin
Qandayligin bir martta ko'rsam.

*Abdulaziz MAMADALIYEV,
Andijon viloyati, Baliqchi
tumanı, Cho'ngqayma qishlog'i.*

Dunyoda shunday toifa insonlar bo'ladiki, jamiyat uchun qilgan arzimasiga mehnatlarini bo'rttirib, ko'z-ko'zlashni yoqtiradilar. Shu tariqa nom chiqarish, elga tanilish yoki biror manfaat ko'rish ilinjida yashaydilar. Boshqa toifa insonlar esa aksincha, har qancha mehnat qilsalarda, «Faqir kishi panada» bo'lib yuraveradilar. Fidoyilikni o'z burchlari deb biladilar. Azbaroyi kamtarliklaridan ikki og'iz maqtasangiz, yo'q, maqtash ham emas, qilgan ishlarning borini gapirsangiz, duv qizaradilar.

Ushbu hikoyamiz qahramoni ikkinchi toifaga mansub insonlardan biri. Maktab, mahalla kutubxonalarida ishlab, bolajonlarga ziyo ulashib kelayotgan oliy toifali kutubxonachi Saida opa Zokirovaning mehnat faoliyatiga ham hademay 30 yil bo'ladi. Poytaxtdagi 116-maktabning ziyo maskanida ishlab kelgan Saida opaning sa'y-harakatlari bilan «Xurshid» mahallasida nurxona tashkil qilindi va «Xurshid» nomi bilan ataldi. Avvallari yaxshi bir an'ana bo'lgan ekan: yangi kutubxona tashkil qilinsa, shahardagi barcha kutubxonalar unga imkon qadar kitoblar berishar, shu tariqa undagi kitoblar soni ortgandan ortib boraverarkan. Kamiga Saida opa uyidagi bor kitoblarni, hatto xonaki gullarini ham turmush o'rtoqlari ko'magida olib kelibdilar. «Xurshid» ham shu tariqa «boyib», ko'rkamashib boraveribdi.

Saida opa ayrim kutubxonachilar kabi tinchgina xonada mudrab: «Keldingmi, keldim» qabilida ish tutadigan, o'quvchilarga obuna bo'lgan nashrlarini olib berishga ham erinadigan, kitoblarni xo'ja-ko'rsinga yasatib qo'yadiganlardan emaslar. O'quvchilarga gazeta va jurnallarini tarqatibgina qolmay, sinfdan tashqari soatlarda, ifodali o'qish darslarida ulardagi maqola va xabarlar, she'r va hikoyalarni birgalikda o'qib, qizg'in muhokamaga

kirishib ketardilar...

Kutubxonadagi muqovalari eskirgan, varaqlari titilib, yaroqsiz holga kelib qolgan kitoblar

«Kutubxona shifoxonasi»da «davolanishar», bu ishda Saida opa ga shogirdlari Saodat Mamedova, Dildora Ahmedova, Xadicha Yo'lichiboyeva kabi o'quvchilar bajon-u dil ko'mak berishardi.

Kutubxonada navoiyxonlik kechalari, Oybek, H.Olimjon kabi shoirlar ijodiga bag'ishlangan

Kasbim - faxrim mening



tadbirlar o'tkazish orqali bolajonlar qalbida kitobga mehr uyg'otadilar.

Yaqinda bo'lib o'tgan sevimli aktyorimiz Zikir Muhammadjonov, hofiz Hasan Rajabiy, adabiyotshunos olim Badriddin aka Nasriddinov ishtirokidagi Navro'z bayrami taassurotlari bolajonlarning hamon yodida. Ayniqa, bolalar shoiri Qambar ota bilan bo'lgan qiziqarli uchrashuv, tadbir so'ngida shoirning kutubxonaga o'z kitoblaridan sovg'a qilgani yosh kitobxonlar tilidan tushmay kelyapti.

-Uzoq yillard davomida bolalar bilan ishlaganim bois ularning olami menga yaxshi tanish. 7-, 8-sinf largacha

G'IJDUVONDA SHUNDAY MASKAN BOR



347.333dan ortiq kitoblar o'rinn olgan. Bu kutubxonada ishlaydigan insonlarning barini o'z kasbinining fidoyisi deb atash mumkin. Chunki unga direktorlik qilib kelayotgan Mavjuda opa Mahmudovaning ish faoliyatiga hademay 25 yil bo'ladi. Bo'lim boshliqlari Maqsuda Olimova, Zarifa Zayniyeva, Baxshanda Do'stova, Dildora Muhammedova, Marziya Fattoyeva kabi jonkuyar xodimlarning ham bu nurxonada mehnat qilishayotganiga juda ko'p yillar bo'lgan. Ular o'tkazgan Til bayrami, «Kitobim - oftobim», «O'zbekiston buyuk diyor» kabi

maroqli tadbir va kechalarni-ku sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi.

Yaqinda «9 may - Xotira va Qadrlash kuni» munosabati bilan o'tkazilgan tadbir ham juda qiziqarli o'tdi. Bayramda yosh kitobxonlar bilan birgalikda Istam aka Javharov, Saida opa Baqoyeva, Damir aka Daminov, Atlas aka Galimov, Saodat Xalilova kabi keksa kitobxonlar, Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini ham ishtirok etishdi. Yosh kitobxonlar faxriylar so'zlagan urush xotiralarini berilib tinglashdi. Ularning jasorati tufayli shunday tinch va farovon hayotda yashayotganlari uchun minnatdorchilik belgisi sifatida o'z qo'llari bilan yasagan sovg'alarini taqdim etishdi, kuy va qo'shiqlari bilan dillarini xushnud qilishdi. O'z navbatida Saida opa Baqoyeva, Damer aka

Daminov ham shaxsiy kutubxonalarida bolajonlarga kitoblar taqdim etdilar. Kutubxonaga ham eng qadrdon kitoblarini esdalik uchun topshirdilar. Bayram so'ngida faxriylarning quchoqlari bolalar taqdim etgan guldstalarga to'lib ketdi.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA.



yaxshi o'qishadi, badiiy kitob o'qishga ham fursat topishadi, -deydar Saida opa kuyunchaklik bilan. Yuqori sinflarda esa ulardagi kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoyq o'z-o'zidan pasayib boraveradi. Ana shu ishtiyoyqni so'ndirmasak, marra bizniki...

Hozirgi kunda opa farzandlari, nabiralari ardog'ida qarilik gashtini suryaptilar. Ishlarini esa shogirdlari davom ettirishyapti. Lekin fursat topildi deguncha qadrond go'shalari sari oshiqadilar. Shogirdlari ishidan qoniqish hosil qilib, uylariga qaytadilar. «Homiyalar va

shifokorlar yili» munosabati bilan ular tashkil

qilgan ko'rgazmani, shuningdek, «O'zbekiston mustaqillik yilalarida», «Tarix silsilasi», «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar» nomli kitoblar ko'rgazmalarini ko'rib, quvonmay bo'ladimi, axir?! Ayniqa, shu kasblari ta'sirida poytaxtdagi 287-maktabda mehnat qilayotgan qizlari Muhabbat Akromovada o'qituvchilik kasbiga ishtiyoyq uyg'ota olganlardan, jazzi nabiralari Shahnozaning esa adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yaganidan opaning ko'ngli tog' barobar...

Tunov kuni Saida opa nabiralarini yetaklab tahririyatimizga kelib qoldilar. Uchtepa tumanidagi 116-maktabning 5-sinfida a'lo baholarga o'qib kelayotgan Shahnozaning ijodi bilan tanishib, qalbimizda umid uchqunlandi: fikrlari teran, misralari ravon she'rlar qoralabdi qizaloq.

Hademay bolajonlarning yozgi ta'til kunlari boshlanadi. «Xurshid»ning ishlari ham ko'paygandan-ko'payadi. Uning qoshidagi tikish-bichish, biser qardash, pishiriqlar tayyorlash kabi to'garaklar zukko qizaloqlar bilan yanada gayumlashadi. Bunday xayri ishlarni amalga oshirishda Saida opa va shogirdlariga omadlar tilab qolamiz.

Feruza JALIOVA.

Maktabimizning 500dan ziyod latin alifbosidagi kitoblari bo'lgan kattagina kutubxonasi bor. Lekin ular kutubxonaga a'zo bo'lgan 750 nafar o'quvchi uchun kamlik qiladi. Shuning uchun ham har yili «Kitoblar marafoni» o'tkazamiz. Marafonni o'tkazishdan asosiy maqsadimiz - kitoblar sonini ko'paytirishgina emas, maktabdoshlarimizda

KITOBALARIMIZ

SONI KO'PAYDI

kitobga mehr uyg'otishdan ham iboratdir.

Yaqinda bo'lib o'tgan marafonimiz ham juda uyushqoqlik bilan o'tdi. Yig'ilganlar 4-sinflar o'rtasida tashkil qilingan «Kim ko'p she'r biladi?» nomli mushoirani katta qiziqish bilan tomosha qilishdi-ya. 8-sinf o'quvchilari esa Abdurauf Fitrat tavalludining 120 yilligiga bag'ishlab «Istiqlol kurashchilarini» mavzusida insholar tanlovini o'tkazishdi. Tadbir so'ngida esa har bir ishtirokchi kutubxonamiz uchun bir donadan kitob sovg'a qildi.

Doston RAHIMOV,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
206 - maktabning
8 - «G» sinf o'quvchisi.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

KATTA ARIQDAGI UY

Katta ariqda ham uy bo'larkanmi, deyayotgandirsiz? Katta ariqda uy emas, suv bo'ladi. Ana shu suv to'lib va tinib yaxshi oqishi uchun uni har yili kavlab, tozalab turishadi. Buvim bolaliklarida shu katta ariqdan sakrab o'taman deb oyoq kiyimlarining bittasini suvgaga tushirib yuboribdilar. O'sha chiroyli shippaklarini ko'p qidiribdilar. Ammo topa olmabdilar. Bobolari «Taqil-latilgan eshik ochilmay qolmaydi. Bir narsani astoydil qidirsang, albatta topasan», degan ekanlar. Buvim ham chin dildan axtaraveribdilar va kelgusi yil ariqlar kavlanganda tuproq uyumlari orasidan uni topib olibdilar. Ammo shippak oyoqlariga sig'mabdi. Vaqt o'tib oyoqlar katta bo'lib qolgan ekan-da. O'sha katta ariqda Hojiakbar amakim Muzaffarga uy qurib bergen ekan. - Buvijon, jo-on buvi, aytib bering, qanaqa uyligini?

Velosipedimni tez-tez haydab, buvimga yetib olib so'rayman.

- Obbo, bilag'on-ey. Esingda bor ekan-da. Darrov bilib oldingmi qatiqchi bola o'sha Muzaffarning o'g'li ekanligini? O'limdan boshqa hamma narsa yolg'on, bolam. Muzaffar besh - olti yilga qamalib ketgan, deyishuvdi. Qaytib chiqib, bolali ham bo'libdi-da. Mening aqlligina o'g'lim esa yog'och ot minib qaytmash yo'iga ketib qoldi...

- Buv, buvijo-on...

Buvim so'zimni eshitmay jim yurib ketaveradilar.

- Buv deyapman, buvii-i!

- Nima deysan?

- Katta ariqdagi uyni aytib bering.

- Aytib bergandim-ku Hojiakbar amaking uygaga kech keladigan bo'lib qolganini. Maktabdan kelib qo'ylarini haydab ketardi-yu, shu ketgancha hammayoq qop-qorayib ketganda kelardi. Ungacha uni necha marta qidirib, o'tlab yurgan qo'ylarini o'zimiz uygaga olib kelib xavotirga tushib o'tirardik. U esa keliboq uyquga ketardi. Qayerda eding, deb so'rasak, aytmasdi. Kiyimlari kir-chir. Tuflisi tuproq bilan to'la... Bu bola biror yerda mardikorchilik qilayaptimi, ishqilib oxiri baxayr bo'lsin-da, deb zo'rg'a chidab yurardik. O'sha kuni ham ishdan erta qaytdim. Chunki xayolim Hojiakbar amakingda bo'lib qolgandi. Mahmuda xolang bilan amaking qo'y boqadigan katta ariq bo'ylaridagi dalaga bordim.

NAFISA NEGA MAKTABDAN QOCHDI?

Biz Nafisa bilan Sobirlarning derazasiga qarab baqirdik.

- Och, morojniy olib ber...

Oyisi derazani ochib pulni oldi va yana 50 so'm ber, o'shanda morojniy beraman, dedi. Nafisa menga qarab, boshqa pulim yo'q, dedi, jvachka olib beraymi, chaynab ichingga yutib yubormaysanmi, dedi.

- Yo'q.

Biz bitta jvachka oldik. Nafisa uni ochib menga berdi va: «Qolgan pulimga qurut olib beraman», dedi.

Men mazza qilib jvachkani chaynay boshladim va undan nega maktabga bormading, deb so'radim.

- Qaytib keldim. Ustoz meni darsdan chiqarib yubordi.

- Nega?

- Men bilan o'qiydigan Adham og'zidagi jvachkani menga puflab yubordi. Jahlim chiqib, saqichini o'ziga dumaloqlab barmog'im bilan chertib yuborgandim, u Adhamning yelkasiga borib tegdi. Keyin shu tezlikda ustoz burnining eng uchiga borib qadaldi. Ustoz qip-qizarib ketdi. Hamma kulib yuborganidan battar jahli chiqib, bu ishni kim qildi, deb baqirdi. Men, dedim. Ammo menga uni Adham otgandi demoqchiydim, ustoz gapirtirgani qo'yamadi va meni eshikka chiqarib yubordi...

- Endi maktabga bormaysanmi?

- Yo'q... Yana bilmadim...

Nafisani yaxshi ko'raman. O'zi mendan katta. Ammo menga boshqa bolalardan yaxshiroq qaraydi. Doim yonimni oladi. Chunki uning ukasi yo'q. Demak, men ukasiman. Kecha eshik oldida zerikib turgandim, oldimga keldi va cho'ntagini kavlab pul chiqardi. Bu pulni tog'am bultur haytda bergandi. Esimdan chiqib ketgan ekan. Shu shimimning cho'ntagida ekan. Yur, senga morojniy olib beraman, dedi.

MUZQAYMOQ - ISSIQ QAYMOQ

Men qo'rqib, uyimiz tomon qaradim. Oyim eshitib qolsalar urishadilar-da. Hech qachon morojniy yedirmaydilar. Yedirsalar ham «mikrovolnoviy pech»ga qo'yib beradilar. Bunday morojniy muzqaymoq emas, issiq qaymoq bo'ladi-ku. Buvim esa, mayli, yeya qolsin, issiqni issiq,sovouqni-sovuq kesadi, deydilar. Oyim tomog'i og'riyapti, bermang, deb turib oladilar. Shunda buvam: «Qo'yib bersa sizlar bolamning kalishini ham dazmollab kiygazasizlar. Bunaqada soyada o'sgan pechakka o'xshab qoladi-ku o'g'il bola», - deb meni yetaklab, boqqa olib kirib ketadilar. Ol bolam, uzumdan ye, deb o'zları uzum uzib beradilar. Men yana orqa-oldimga qarab uzumni oyim ko'rmasin deb tez-tez yeb olamanda, keyin yuvib bermaysizmi, deb so'rayman.

- Eh, bolam-a, uzum o'zimizning yerda o'sgan. Yerimiz toza. Chang bo'lgan bo'lsa, kel, p u f l a b , changini qoqib beraman...



Umida ABDUAZIMOVA

Buvim Nasiba xolaga «bolangizni urishmang», deganlarini eshitgan Nafisa daraxt panasidan chiqib, oldimga kelib, menga cho'ntagidan qurut olib berdi. Oyisi buni ko'rib qolib, pulni qayerdan olding, deb so'radi.

- Attorchi amakidan.

- Qaysi pulga?

- O'zi bor edi...

- Shunaqa, qayerdan pul oladi. Puliga nima sotib oladi, men bilmayman. Qani, oldimga tush-chi. Bugun ham maktabga bormadingmi?...

Nafisani oyisi yetaklab, uyiga olib kirib ketdi.

Mening Nafisaga juda rahmim kelib ketdi. Ustoziga ham Adhamning aybi bilan yomon ko'rinib yuribdi. Oyisiga ham tog'asi «hayt» qilib bergen pul ekanligini darrov aytay olmay qiyalyapti. Men ham bir xillarda shunaqa ahvolga tushib qolaman. Kattalar esa bizlarni tushunishmay, xafa bo'lib yurishadi.

- Buv, aytig, oyisi urishmasin.

- Urishmang, dedim-ku, asalim, urishmaydi. Qani, qurutni menga ber-chi. Voy, bu juda qattiq ekan-ku! Ichiga ohak qo'shilganmi, unmi, nima balo?...

Buvim shunday deb uni otib yubordilar.

- Senga attorchilardan narsa olib yemagin deganman-ku.

- Qurut yeyman, qurut...

- Qurutni bilasanmi qanday qilgan o'sha qora attorchi? Qo'ltig'ining tagiga suzma qo'yib aylantirib-aylantirib dumaloqlagan. Kim biladi, ichida qil bormi, sochmi, toshmi? Agar qurut yesang o'zim senga quritilmaganidan olib kelib beraman.

Meni juda qurut yegim kelib turgandi. Quritilmagan qurut ham bo'larkanmi, deb turib qoldim.

- Abdumajid, chetga qoch, mashina kelayapti!

MUZAFFARNING O'G'LII

Mashina o'tib ketgach, paqir ko'targan qatiqchi bola paydo bo'lib qoldi. U uyma-uy yurib, o'z qatig'ini sotardi. Buvim hey bola, qatig'ing necha pul, qani, menga ko'rsat-chi, dedilar.

Bola chopib oldilariga keldi.

- Mana buning qatig'i yaxshi ekan. Ana shu qatiqdan olib, dokaga solib qo'yamiz. Ikki-uch kun o'tgach, o'zi qurut bo'lib qoladi... Har kuni kelasanmi?

- Ha.

- Nega men ko'rmagan ekanman? Hov anovi yog'och darvozali uy bizniki. Kelganingda albatta bizning uygaga ham kirib turgin. Bilib oldingmi uyimizni?

- Ha, dadam ko'rsatganlar o'rtog'imning uyi, deb.

- Dadangning oti nima?

- Muzaffar.

- Qaysi Muzaffar? O'xshab turibsan, mabodo Gulchehraning nabirasimasimisan?

- Ha, buvimning ismi Gulchehra.

Buvim otang yaxshimi, dedilar-u, mayli, qatig'ingni bizning uygaga tashlab o't, deb tez-tez yurib keta boshladilar. Nega buvijonim darrov o'zgarib qolganlarini siz bilmaysiz. Men esa juda yaxshi bilaman. Bu bola Hojiakbar amakingning o'rtog'i Muzaffarning o'g'li.

Yana Hojiakbar amaking oramizda paydo bo'lib qoldilar-a... Shunaqa. Men sizga ularning Muzaffaraka bilan nima ishlar qilishganini aytib beraman.



(DAVOMI BOR).

Bir kuni Sayyora opa ishdan kelsa, qizi Nigoraxon «Do'ppi tikdim, ipaklari tilledan» qo'shilg'ini xirgoyi qilgancha, qo'g'irchoqlariga jajji do'ppi tikayotgan ekan.

-Iye, Nigoraxon, nima qilyapsan?

-Assalomu alaykum, oyijon.

qo'g'irchoqlarimga chiroyli chiqibdimi?

Sayyora opa

Mustaqillik tengdoshi

do'ppichani qo'liga olib, uzoq tikildi-da:

Buni qarang, do'ppi tikayapman,

-Barakalla qizim, tikishga qo'ling ancha kelishib qolibdi-ku, - dedi.

-Ha, oyijon, sizga o'xshab tikuvchi bo'laman.

- dedi quvonib Nigora. Meni ham siz kabi «Chevar tikuvchi» deyishlarini xohlayman. Qizining tikuvchilik, to'quvchilik kasbiga mehr qo'yayotganidan dili ravshan tortgan Sayyora opa shu kundan boshlab unga tikuvchilik, to'quvchilik sirlarini astasekin o'rgata boshladi.

-Qizim, bu kasbga m e h r qo'ysang.

k a m
bo'lmaysan.

Ayniqsa, kashtachilik eng kamyob kasb. U o'zbek xalqining qadimdan saqlanib kelayotgan milliy san'at turlaridan.

Kashtada o'ttizdan ortiq chok turlari bor. Bularidan suv choki, to'ldirma chok, iroqi chok, zanjir chok...

Bularni sanayversang, turlari ko'p. Yaxshisi sen shahar o'quvchilar ijodiyot markaziga borib, «Badiiy va an'anaviy kashtachilik» to'garagiga qatnashsang, bu kasbni miridan-sirigacha o'rjanib olasan. U yerda mashhur kashtachi, to'quvchi Zamira Nuriddinova to'garakka rahbarlik qiladi. Hozir uning shogirdlari ko'pgina ko'rik-tanlovlarida g'olib bo'layapti...

O'sha suhbatdan so'ng, Nigora shahar o'quvchilar ijodiyot markazining «Badiiy va zamonaviy kashtachilik» to'garagiga a'zo bo'ldi. To'garak rahbari Zamira opa Nigoraning ishlarini ko'rib, kelajakda undan ajoyib tikuvchi, kashtachi, to'quvchi chiqishiga umid bog'ladi.

Shu kundan boshlab Nigora bu hunarlarni zo'r ishtiyoq bilan o'rgana boshladi. Bu yo'lda onasi va ustozni Zamira opaning yo'l-yo'riqlari, qimmatli maslahatlariga amal qilgan holda tinimsiz izlanishlar olib bordi. O'z ustida olib borgan ijodiy izlanishlar o'z samarasini bera boshladi. Uning ishlarini shahar, respublika ko'rik-tanlovlarida munosib taqdirlanadigan bo'ldi.

Ayniqsa, «Yosh ijodkorlar» Respublika ko'rik-tanlovi, 2005-yil «Mustaqillik bayrami», «Kamalak-2005», «Navro'z-2006», 2005-2006-yillarda o'tkazilgan O'zbekiston «Yangi avlod» jamg'arma ko'rik-tanlovi, «Kelajak ovozi» jamg'arma forumi, «Yosh hunarmandlar» Respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashib, faxrli o'rirlarni egallab kelyapti.

Shu kunlarda u Respublikamiz sharafini himoya qilish maqsadida turli xalqaro ko'rik-tanlovlariga katta tayyorgarlik ko'ryapti. Ulardan biri yaqinda O'zbekistondagi hind madaniyat markazida o'tkaziladi. Unda bir qancha mamlakat bolalari o'zlarining rang-barang hunarmandchilik ishlari bilan ishtirok etishadi. Biz Nigoraning barcha xalqaro ko'rik-tanlovlarida yuqori o'rirlarni egallashida omad tilab qolamiz.

Nigora Po'latova mustaqillik tengdoshi. 1991-yilda tug'ilgan. Hozir Toshkentdaggi 99-maktabning 8-sinfida «a'lo» baholarga o'qish bilan birga «Kamolot» YIH tashkilotining yetakchisi.

Uning birdan-bir orzusi o'zbek milliy kashtachilik, zardo'zlik san'atini jahonga tanitishdir.

Tohir MULLABOYEV.




KAMOLOT' YETAKCHISI

«BIZ PREZIDENT FARZANDLARIMIZ»

Yaqinda Uchtepa tuman hokimiyatining bayramona bezitilgan katta majlislar zali «Kamalak»ning besh yilligini nishonlash uchun kelgan tuman maktabalarining «Kamolot» va «Kamalak» sardorlari bilan gavjum bo'ldi.

Bu yerda «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Uchtepa tuman bo'limi «Kamalak» bolalar tashkilotining «Biz prezident farzandlarimiz» shiori ostidagi V anjumani o'tkazildi. 5 yil unchalik ko'p fursat emas. Lekin shu vaqt ichida Harakatning Uchtepa tuman bo'limida talaygina ibratli ishlar amalga oshirildi. «Kamalak» - kichkintoylarning haqiqiy do'stiga aylanib ulgurdi. Tashkilot a'zolarini Harakatning tuman bo'limi Kengashi raisi Rayhona kelgusi ishlarida zafarlar Tadbir anjumanning eng hayajonli 2006»ning 7ta yo'naliishi bo'yicha g'oliblarni aniqlash va taqdirlash marosimi boshlandi. Tuman «Kamolot» sardori Iroda Isxoqova «Yilning eng talabchan sardori» deb topildi. «Yilning eng faol sardori» nominatsiyasi bo'yicha tuman yurist maslahatchisi Bobur Sobirov taqdirlandi. Tuman Xalqaro Faoliyat soha sardori A'zamxon Saidnabiyev «Yilning eng madaniyatli sardori» deb tan olingen bo'lsa; menga «Yilning eng namunali sardori» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblik nasib etdi. Yana ko'plab



tengdoshlarimiz turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topildilar.

Anjuman davomida ishtirokchilar e'tiboriga «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyati haqida hisobot beruvchi videorolik ham namoyish etildi. Kechaga «Orom» maktabi, 107-musiqo maktabi hamda respublika tasviriy san'at litseyi o'quvchilarining, shuningdek, 296-maktab «Kamalak» sardori, «Xumo» ashula va raqs dastasining yakkaxon qo'shiqchisi Zarifabonu Saydaliyeva ijrosidagi vatanparvarlik, baxtil bolalik haqidagi kuy va qo'shiqlari yanada fayz kiritdi.

Ayniqsa, anjuman so'ngida kuylangan:

*Yosh yuraklarning
sho'x sozi bo'lib,
O'zbekistonimizning
ovozi bo'lib,
Ezgu niyat bilan
qadam tashlaylik,
Elim deb, yurtim deb
yonib yashaylik.
«Kamolot» bizga qanot,
«Kamolot» yosh avlod... -*

qo'shilg'iga jo'r bo'lmagan ishtirokchi topilmadi.

Bir so'z bilan aytganda, anjuman biz kutgandan ham qiziqarli va ko'tarinki ruhda o'tdi.

Nargiza SAYDULLAYEVA,
«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Uchtepa tuman bo'limi
sardorlar Kengashi raisi o'rinnbosari, «Kamalak» sardori.

Bolajonlar! Hammangiz yaxshiroq tomosha bo'lsa, ekrandan ko'z umaysiz. Lekin mana shu kino, ko'rsatuv yoki filmni ishlash uchun qancha insonlarning umri, vaqt ketishini hech o'yab ko'rganmisiz? Ekranda ko'rinish turgan san'atkorlar-u teleboshlovchilar, tomoshabinlardan tashqari kadr ortida yana qancha insonlar mehnat qilishini bilasizmi? Mana shunday jonkuyar rejissyorlardan biri, erta tongdan «Assalom, O'zbekiston» ko'rsatuvi orqali sizga bor mehrini berib kelayotgan inson Hojiakbar MIRXIDOYEV bugungi «O'zTV ijodkorlari» sahifasining mehmonidirlar. Ularning qanday qilib bu sohaga qiziqib qolgantiklari haqida bilishni istab, ularga savollar bilan murojaat qildik:

- Ikki o'g'il va ikki qizning kattasiman. Bolaligim Zangiota tumaniidagi Qahramon mahallasida o'tgan. Bolaligimdan san'atga ishqibozligim katta edi. Bolalikdagi orzularim ortidan quvib, Shukur Burxonov, Abor Hidoyatov ijodlariga havas qilib, 1971-yil Teatr va rassomchilik institutiga o'qishga kirdim. Nafaqat o'qidim, o'qish bilan birga O'zteleradioda yordamchi rejissyor sifatida ish faoliyatini boshladim. Kasbimga qiziqishim ustunligidan shu sohani mukammalroq egallay deb rejissyorlarga yordamchi bo'lib ishladim. 2-3 yil ichida rejissyor assisenti bo'ldim. Malakam oshgach, 1984-yillarga kelib, Bolalar tahririyatida Hamza Imonberdiyev bilan hamkorlikda «Quvnoq shaharcha» nomli teleo'yin tashkil qildim. Keyinchalik «Yoshlik» studiyasi ish boshlagach, men bosh rejissyor vazifasida ishlay boshladim. O'sha vaqtarda bu ko'rsatuv to'g'ridan-to'g'ri efir yuzini ko'rardim. Shu sababli bizdan katta mas'uliyat talab etilardi. Oktabr Mo'minov, Bobur Alixonov, Haydar Abzalov bilan birgalikda tinimsiz izlanishda bo'lardik. Ko'rsatuv orqali o'zimni sinab ko'rgach, «Karvon» nomli turkum videofilmni suratga oldim. Bu film afg'on yigitlari xotirasiga bag'ishlangan edi. Film shu qadar yaxshi chiqqan ekanmi yo o'sha paytlarda bu mavzuga uncha to'xtalmasmidi, har qalay bir nechta festivallarda sovrinli yutuqlarni qo'lg'a kiritdi. Keyin yana ijodga sho'ng'idim. O'sha vatqlari mashhur bo'lgan «2x2=5» nomli ko'rsatuvni tomoshabinlarga taqdim qildim. Ko'rsatuv juda yaxshi kutib olindi. 1994-yillarda «Assalom, O'zbekiston» tahririyati ish



BOSHLANG'ICH SINFDAN YUQORIGA...

Bu o'quv yiliда men boshlang'ich sinfni tugatib, yuqori sinfga o'taman. Birinchi ustozim Muborak opa Fayziyeva bilan xayrashish hissi hozirdan meni qiy namoqda. **Izhor** Chunki 4 yil mobaynida b i z n i n g e r k a l i g i m i z n i , sho'xliklarimizni ko'tarib, hisob-kitobni, yozishni o'rgatgan, bilim saltanatiga yetaklagan ustozimizga juda o'rganib qolgan edim-da. Endi boshqa muallimlar qo'lida saboq olishga chog'lanar ekanman, birinchi ustozimni hecham yodimdan chiqarmayman. Ular menga nafaqat savodxonlikdan, balki rassomchilikdan ham dars bergenlar. Men ustozimidan minnatdorman.

Muzaffarxo'ja HAMZAXO'JAYEV,
Toshkentdag'i 234-maktabning
4-sinf o'quvchisi.



boshlashi to'g'risida buyruq qabil qilinib, meni ishga o'tkazishdi. Shundan beri «Assalom»daman.

- Shogirdlaringiz haqida ham so'zlab bersangiz... 32 yillik ish faoliyati davomida shogirdlar safi ham kengayib qolgandir?

- Shogirdlarim juda ko'p. «Gap y o ' q » guruhidagilarning deyarli hammasi shogirdim. Undan tashqari,

Qobiljon Rahmonov, Faxriddin Asqarov, Abduhalil Mamadaliyevni aytib o'tishim mumkin. Yana teleboshlovchilar uchun rejissyor ham ustozdek gap. Sahnada o'zini tutishdan tortib, aytadigan gapigacha rejissyor nazoratida bo'ladi. Shunday ekan, teleboshlovchilarining ko'pchiligin bemalol shogirdim deya olaman. Masalan, Dilfuza Yusupova, Aziza Usmonova, Botir Ziyayev, Munisa Toshmatova, Tolib Isroilov bilan ham birga ishlagman va ishlab kelmoqdaman.

- Xalqimizda «Ot izini toy bosadi» degan yaxshi bir naql bor. Bu naqlni bejiz eslamadik, sezib turgan bo'lsangiz keyingi savolimiz farzand-

laringiz haqida.

- Ikki o'g'lim, bir qizim bor. O'g'lim Dilmurod Mirxidoyev San'at institutini tamomladi. Ikkinci o'g'lim Doniyor Mirxidoyev Islom Universitetini bitirgan. Qizim esa Xalq bankida ishlaydi. Ha, aytgancha, bittagina nabiram ham bor. Ismi Dildoraxon. Katta o'g'lim Dilmurodjonni «KinoTeatr», «Antiqa tomosha» ko'rsatuvlari orqali ko'pchilik yaxshi taniydi. Ot izini toy bosgani shu bo'lsa kerak-da... Xullas, hamma orzularim ushalgan desam ham bo'ladi. Hozir tinchgina sevgan ishimda ishlab yuribman. Shiringina oilam bor. Buyog'iga yurtimiz tinch, xalqimiz farovon bo'lsa, eng asosiysi, sog'lik bo'lsa, qolgan hamma narsa topiladi.

- Bolajonlarga tilaklariningiz.

- Bolajonlarga nima ham tilardim. Orzulari ijobatini tilayman. Har doim birinchi qadamni qo'yishdan oldin yaxshilab o'yab ish qilishsin.

Ma'suda VOHODOVA suhbatlashdi.

Keling, do'stlashamiz.

BELORUSSIYADAN

MAKTUB

Men Diana Zaytsevaman. 31-o'rtal umumiyo maktabning 11-sinfida o'qiyman. Besh yoshligimdan qo'shiq aytaman. Hozirda maktabdan tashqari «Roskvit» markazining «Sovuchiyeye» studiyasida badiiy rahbarim Alla Budusevichdan san'at sirlarini o'rganyapman. Kelajakda qo'shiqchi yoki musiqiy telekanal boshlovchisi bo'lishni orzu qilaman. Bichish-tikish jon-u dilim. Eski kiyimlardan yangicha urfdagi libos yarataman. Jonivorlarni yaxshi ko'raman. Umuman olganda, tez do'stlashib keta oladiganlar toifasidanman. Mening do'starim nafaqat belorusiyalik, balki boshqa davlatlardan ham bo'lishini istayman. O'zbekistondan do'st va dugonalar orttisam, o'zimni baxtiyor sanardim. Xatlarigizni kutaman.

Diana ZAYTSEVA, Belorus Respublikasi, Mogilyov viloyati, Bobruysk shahri.



Shundan beri «Assalom»daman.

- Shogirdlaringiz haqida ham so'zlab bersangiz... 32 yillik ish faoliyati davomida shogirdlar safi ham kengayib qolgandir?

- Shogirdlarim juda ko'p. «Gap y o ' q » guruhidagilarning deyarli hammasi shogirdim. Undan tashqari,

Qobiljon Rahmonov, Faxriddin Asqarov, Abduhalil Mamadaliyevni aytib o'tishim mumkin. Yana teleboshlovchilar uchun rejissyor ham ustozdek gap. Sahnada o'zini tutishdan tortib, aytadigan gapigacha rejissyor nazoratida bo'ladi. Shunday ekan, teleboshlovchilarining ko'pchiligin bemalol shogirdim deya olaman. Masalan, Dilfuza Yusupova, Aziza Usmonova, Botir Ziyayev, Munisa Toshmatova, Tolib Isroilov bilan ham birga ishlagman va ishlab kelmoqdaman.

- Xalqimizda «Ot izini toy bosadi» degan yaxshi bir naql bor. Bu naqlni bejiz eslamadik, sezib turgan bo'lsangiz keyingi savolimiz farzand-

laringiz haqida.

- Ikki o'g'lim, bir qizim bor. O'g'lim Dilmurod Mirxidoyev San'at institutini tamomladi. Ikkinci o'g'lim Doniyor Mirxidoyev Islom Universitetini bitirgan. Qizim esa Xalq bankida ishlaydi. Ha, aytgancha, bittagina nabiram ham bor. Ismi Dildoraxon. Katta o'g'lim Dilmurodjonni «KinoTeatr», «Antiqa tomosha» ko'rsatuvlari orqali ko'pchilik yaxshi taniydi. Ot izini toy bosgani shu bo'lsa kerak-da... Xullas, hamma orzularim ushalgan desam ham bo'ladi. Hozir tinchgina sevgan ishimda ishlab yuribman. Shiringina oilam bor. Buyog'iga yurtimiz tinch, xalqimiz farovon bo'lsa, eng asosiysi, sog'lik bo'lsa, qolgan hamma narsa topiladi.

- Bolajonlarga tilaklariningiz.

- Bolajonlarga nima ham tilardim. Orzulari ijobatini tilayman. Har doim birinchi qadamni qo'yishdan oldin yaxshilab o'yab ish qilishsin.

TONG YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Botir UBAYDULLAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

bosh muharrir o'rinbosari)

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan

2003-yil 11-dekabrdan ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 48849

Buyurtma N: J 2387

Dizayner va sahifalovchi: Fazliddin SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Muharrama PIRMATOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-63-08

Tel/ faks:

(99871) 144-24-45

O'zTV ijodkorlari



**OT IZIM TOY
BOSGANI SAQ-DA....**

laringiz haqida.

- Ikki o'g'lim, bir qizim bor. O'g'lim Dilmurod Mirxidoyev San'at institutini tamomladi. Ikkinci o'g'lim Doniyor Mirxidoyev Islom Universitetini bitirgan. Qizim esa Xalq bankida ishlaydi. Ha, aytgancha, bittagina nabiram ham bor. Ismi Dildoraxon. Katta o'g'lim Dilmurodjonni «KinoTeatr», «Antiqa tomosha» ko'rsatuvlari orqali ko'pchilik yaxshi taniydi. Ot izini toy bosgani shu bo'lsa kerak-da... Xullas, hamma orzularim ushalgan desam ham bo'ladi. Hozir tinchgina sevgan ishimda ishlab yuribman. Shiringina oilam bor. Buyog'iga yurtimiz tinch, xalqimiz farovon bo'lsa, eng asosiysi, sog'lik bo'lsa, qolgan hamma narsa topiladi.

- Bolajonlarga tilaklariningiz.

- Bolajonlarga nima ham tilardim. Orzulari ijobatini tilayman. Har doim birinchi qadamni qo'yishdan oldin yaxshilab o'yab ish qilishsin.

Ma'suda VOHODOVA suhbatlashdi.

Keling, do'stlashamiz.

BELORUSSIYADAN

MAKTUB

Men Diana Zaytsevaman. 31-o'rtal umumiyo maktabning 11-sinfida o'qiyman. Besh yoshligimdan qo'shiq aytaman. Hozirda maktabdan tashqari «Roskvit» markazining «Sovuchiyeye» studiyasida badiiy rahbarim Alla Budusevichdan san'at sirlarini o'rganyapman. Kelajakda qo'shiqchi yoki musiqiy telekanal boshlovchisi bo'lishni orzu qilaman. Bichish-tikish jon-u dilim. Eski kiyimlardan yangicha urfdagi libos yarataman. Jonivorlarni yaxshi ko'raman. Umuman olganda, tez do'stlashib keta oladiganlar toifasidanman. Mening do'starim nafaqat belorusiyalik, balki boshqa davlatlardan ham bo'lishini istayman. O'zbekistondan do'st va dugonalar orttisam, o'zimni baxtiyor sanardim. Xatlarigizni kutaman.

Diana ZAYTSEVA, Belorus Respublikasi, Mogilyov viloyati, Bobruysk shahri.